

KIMYO DARSLARIDA O`QUVCHILARGA IQTISODIY BILIMLARNI BERISH METODIKASI

D.A.Karimova, M.F.Umarqulova

Navoiy davlat pedagogika instituti, Kimyo kafedrasи

Hozirgi davrda dars jarayonlarida ilg'or innovation texnologiyalar, fandagi erishilgan yutuqlar va yangiliklardan o`quvchilarga yetkazib berish natijasida ta'lim samaradorligi oshib bormoqda.

Biz shularni e'tiborga olgan holda o`quvchilarga kimyo fanini o`qitishda mavzularga mos ravishda iqtisodiy bilimlarni berish lozim deb o`ylaymiz. Chunki, iqtisodi rivojlangan mamlakatgina o`zining munosib o`rniga ega bo`ladi. Shuning uchun biz kimyo ya'ni tabiat qonunlarini iqtisot ya'ni jamiyat qonunlariga qo'llashning ba'zi usullarini keltirib o`tmoxchimiz.

Ma'lumki, so`nggi yillarda jahonda ro`y berayotgan voqealar juda ko`p tajribali iqtisodchilar uchun kutilmagan natijalarni olib kelmoqda. Buning sababi, jamiyat va iqtisodiyotda ro`y berayotgan murakkab jarayonlarning kelib chiqishini tushuntirish tabiiy fanlar tilida amalga oshirish lozimligini ko`rsatmoqda.

Rivojlanish nazariyasi iqtisodiyotning o`zgarish sifatini hisobga oladi. Iqtisodiyot, jumladan, tovar-pul xo`jaligi dinamik sistema hisoblanadi. Dinamik sistemalar holat tenglamalar orqali xarakterlanadi. Tovar pul xo`jaligining asosiy xarakteristikalari eng sodda holda molekulyar kimyoda va termodinamikadagi Mendeleyev-Klapeyron tenglamasiga aynan o`xshash bo`ladi [2]:

$$PV = \nu RT \quad (1)$$

Bu yerda R- tovar bahosining darajasi; V-sotishga chiqarilgan tovar hajmi; ν - muomaladagi pul miqdorini tahlili. Bu kimyo qonunlarining universal ekanligini ko`rsatadi. Biz quyida termodinamik va iqtisodiy kattaliklar o`rtasidagi o`zaro o`xshashliklari keltirib o`tamiz.

Termodinamik va iqtisodiy kattaliklar o`rtasida o`xshashlik

Termodinamik tizim			Iqtisodiy tizim		
<i>Fizik kattalik nomi</i>	<i>B</i> <i>elgisi</i>	<i>O'lc hami</i>	<i>Iqtisodiy kattalik nomi</i>	<i>B</i> <i>elgisi</i>	<i>O'lc hami</i>
Energiya	E	Joul	Resurs zaxirasi	N, M	Pul

Harorat	T _{dus}	Gra	Resursni baholash	R	Pul/ dona
---------	------------------	-----	----------------------	---	--------------

Ammo, ideal gaz holatini ifodalaovchi (1) ifodani real xo`jalikka to`la qo`llab bo`lmaydi. Bu holda real gaz uchun Van -der-Vaals tenglamasiga o`xhash tenglama paydo bo`ladi:

$$\left(P + \frac{a}{V^2} \right) (V - b) = \nu T \quad (2)$$

Bu yerda $\frac{a}{V^2}$ — tovar birligi bahosining to`lanmagan qismi, a va b real tovar pul xo`jaligiga tegishli bo`lgan tuzatmalardir [2].

Fizik va iqtisodiy tushunchalar o`rtasida o`xhashlik

Belgilar	Fizik kattalik	Iqtisodiy kattalik
N_e^-	Spini "past"ga yo`nalgan elektronlar	Pul
N_e^+	Spini "yuqori"ga yo`nalgan elektronlar	Tovar (aksiya yoki valyuta)
N_i	Spini "past"ga yo`nalgan atomlar	Xaridorlar
N_t	Spini "yuqori"ga yo`nalgan atomlar	Sotuvchilar
n	Elektronlar konsentrasiyasi	Bozor resurslarining konsentrasiyasi

Bunday misollarni juda ko`plab keltirish mumkin. Shunday qilib, hozirgi vaqtida kimyo qonunlarini iqtisodiyotda qo`llashga bag'ishlangan yangi fan-kimyoviy-iqtisodiyot fani paydo bo`ldi. Bu fan bilan shug'ullanuvchilar yildan-yilga ortib, internet saytida "Bozor kimyosi" bo`yicha minglab ishlari berilgan. Shu ma'lumotlardan ba'zilarini keltirib o`tmoxchimiz. "Hozirgi kunda kimyogarlarning juda ko`pchiligi birjalarda, boshqa turli xil ofislarda iqtisodiyot ishlari bilan shug'ullanmoqdalar. Kimyogarlarning matematiklardan farqli o`laroq, bunday fond birjalariga o`tib ketishi kimyogarlarga xos bo`lgan real jarayonlarni miqdoriy baholab, har qanday jamoat parametri, shu jumladan, fond bozorini ham kimyo qonunlari asosida tushuntirib beradi. Bahoni moddiy nuqtaning koordinatasi, bahoning o`zgarishini esa zarrachaning

harakati deb qarab, klassik va kvant kimyo qonunlarini qo`llash orqali turg'un va dinamik iqtisodiyot qonunlarini keltirib chiqaradi” [2].

Nobel mukofoti sovrindori Marris Alle Jenevadagi Xalqaro iqtisodiy taraqqiyotlar institutida o`qigan ma`ruzasida “Iqtisodiyot o`zining uslublariga matematika, kimyo va kompyuter metodlarini tatbiq etgani tufayli haqiqiy fanga aylanganligini aytib o`tadi. Bunday integrasiyalashuv ijobjiy jarayonlarni yuzaga keltirdi.

Hozir jahoning yetakchi universitetlari kimyoviy-iqtisodiyot bo`yicha mutaxassislar tayyorlamoqda. Bitiruvchilarga va ularga bo`lgan ehtiyoj, iqtisodiyot va bank akademiyalari bitiruvchilariga bo`lgan talabdan yuqori darajada oshib ketayotganligi kuzatilmoxda. Bundan o`zaro uyg`unlashib borayotgan bir davrda iqtisodchi-mutaxassislar uchun kimyo qanchalik zarur ekanligini anglash mumkin.

Dars jarayonida o`quvchilarga kimyo fanining nafaqat tabiat balki jamiyat qonunlarini ham ifodalay olishiga ishontirish uchun biz yuqorida qo`llagan metoddan kimyo fani o`qituvchilari foydalansalar o`ylaymizki, bu o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini orttiradi. Shuningdek, boshqa fanlarga qiziquvchi o`quvchilar ham kimyo fanini qunt bilan o`rganib, tabiat va jamiyat qonunlari o`rtasidagi umumiylikni tahlil qila olishga va uni o`z hayotiy faoliyatida qo`llash malakalari hosil bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo`ldoshev J.G., Usmonov S.A. “Pedagogik texnologiya asoslari”. T. “O`qituvchi”. 2004.
2. Internet ma'lumotlari